

## O‘ZBEK TILI ANTROPONIMIK TERMINOLOGIYASI

**Xojiyeva Maxfirat Yusupovna**

*BuxDU o‘zbek tilshunosligi va jurnalistika*

*kafedrasi dotsenti*

*[xojiyevamaxfirat8@gmail.com](mailto:xojiyevamaxfirat8@gmail.com)*

**Annotatsiya:** tezisda o‘zbek tili antroponimiyasining terminologik tasnifi keltirilgan, misollar orqali dalillangan va boshqa tillardan ayrim farqli xususiyatlari sanab o‘tilgan.

**Annotation.** The thesis presents a terminological classification of the anthroponymy of the Uzbek language, substantiates it with examples, and lists some of its distinctive features from other languages.

**Kalit so‘zlar:** o‘zbek, terminologiya, antroponim, so‘z, nominativ, nomlash.

**Key words:** Uzbek, terminology, anthroponym, word, nominative, naming.

Til taraqqiyoti shuni ko‘rsatadiki, “terminlar taraqqiyoti tarixini fan tarixidan ajratib tasavvur etib bo‘lmaydi, terminlar tegishli tushuncha bilan rost tanosibi, ularning muntazam takomili har qanday fanning ilgarilash tamoyillari bilan uyqashdir”[1]. Bu holatni nafaqat tilshunoslik, balki barcha fanlarning o‘shish va o‘zgarishlarda ko‘rish mumkin. Ilm fan, texnika jadallik bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda mamlakatimizda yangi fan sohalari, yo‘nalishlarning yuzaga kelishi natijasida shu sohalarning o‘z terminologik tizimi shakllandi. Bu esa, albatta, yangi terminlarni lingvistik aspektida o‘rganish, ularni tartibga solish muammosini yuzaga keltiradi. Hozirgi o‘zbek tilshunosligi, jumladan, terminologiya sohasi turli fan yo‘nalishlarida yangilanish kasb etib boradi, bu birliklarni tahlil va tadqiq etish tilshunoslar oldiga qo‘yilgan asosiy masalalaridan biriga aylanadi.

Terminologiyaning dolzarb masalalari yechimini topish faqat u yoki bu fanning tegishli sohalari uchungina emas, umuman, tilshunoslik uchun ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, tilshunoslikda birgina terminning ta‘rifi masalasida hanuz bahstlab o‘rinlar mavjud. Terminga ko‘plab ta‘riflar berilgan bo‘lsa-da ularda terminlarning xususiyatlari turlicha belgilangan. Ba‘zi tadqiqotchilar terminning nominativ (atash, nomlash xususiyati) xususiyatini birinchi o‘ringa qo‘yishadi. Jumladan, G.Vinokurning tavsificha, “termin sifatida namoyon bo‘luvchi so‘zning alohida, maxsus vazifasi atashdir” [2]. Ayrim boshqa bir guruh tadqiqotchilari esa termin so‘zini izohlashda uning aniqlovchilik (definitiv) xususiyatiga alohida e‘tibor qaratadilar va uning mohiyati bilanaloqasini alohida ajratib tadqiq etadilar. Buni akademik V.V. Vinogradovning quyidagi so‘zlari ham yaqqol tasdiqlaydi: “Hammaga ma‘lumki, so‘z, eng avvalo, nominativ yohud definitiv vazifani bajaradi, ya‘ni agar so‘z eng aniq bir belgi vositasi bo‘lib xizmat qilsa, oddiy belgi hisoblanadi, agar mantiqiy ta‘rif vositasi bo‘lsa, ilmiy termin hisoblanadi”[3].

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, “termin” tushunchasiga yuklangan mazmun quyidagi belgilarga asoslanishi lozim: “1) termin umumadabiy tilning muhim leksik qatlamlaridan biri bo‘lmish fan, texnika, ishlab chiqarish, kasb-hunarlariga oid tushunchalarni ifodalovchi maxsus lug‘aviy birlik (so‘z yoki so‘z birikmasi)dir; 2) termin maxsus narsa, ashyo yoki mavhum tushunchaning o‘ziga xos nomidir; 3) termin uchun muayyan ta’rif (definitsiya) zarur, bu ta’rif tegishli tushuncha mazmunini aniqroq ifodalashga, tushunchalarning birini ikkinchisidan chegaralab ajratishga, ayni mahalda ma’lum tushunchani muayyan tasnifiy qatorga joylashtirishga imkon yaratuvchi belgilarni ravshanroq ko‘rsatishga yordam beradi”[4]. Terminlga berib o‘tilgan tavsiflar, yuqoridagi belgilar uni umumiste’modagi so‘zdan tafovutlash uchun yetarlidir.

Shunday ekan, terminologiyaga muayyan fanning tushunchalar bilan o‘zaro munosabatda bo‘lgan terminlar tizimi sifatida qarash o‘rinli. Har bir fan o‘zining terminologik tizimiga ega, darhaqiqat, terminologik tizimlar ham fan taraqqiyoti bilan birgalikda rivojlanib boradi.

Tilshunoslikda antroponimlar majmuyi antroponimiya degan termin bilan yuritiladi. Misol uchun, rus antroponimiyasi yoki o‘zbek antroponimiyasi. Antroponimlarni o‘rganuvchi lingvistik soha esa antroponimika deb yuritiladi. Onomastikaning bu bo‘limi antroponimlarning lingvistik xususiyatlarini tadqiq etadi. Antroponimlar bilan shug‘ullanuvchi, ya’ni antroponimika mutaxassisi antroponimshunos yoki antroponimist kabi terminlar bilan yuritiladi. Tildagi antroponimlar yig‘indisi esa antrokon termini bilan yuritiladi. E.Begmatovning ilmiy qarashlarida antroponimika o‘rganadigan, antroponimiyaning fondini tashkil qiladigan antroponimik birliklarga nimalar kiradi? Konkret olinadigan bo‘lsa, o‘zbek tilidagi kishi atoqli oti bo‘lgan quyidagi onomastik vositalar o‘zbek antroponimiyasining birliklaridir: 1. Ismlar - konkret shaxsga berilgan ismlar. Masalan; Dilnoza, Dilshod. 2. Laqablar; Jo‘ra Pason, Olim Tashvish. 3. Taxalluslar; Xorazmiy, Nihoniy. 4. O‘zbeklarda shaxsni nomlashning o‘tmishda mavjud bo‘lgan ayrim shakllari (“qizi” “o‘g‘li”) yordamida nomlash; Yo‘lchi qizi, Yusuf o‘g‘li. 5. Shaxsni uning ismiga o‘tmish ajdodlarini nomini tiklash orqali atashning arabcha shakllari (“ibn”, “binni”) yordamida; Abu Ali ibn Sino, Avaz baxshi binni Shoxnazar. 6. O‘tgan asrning 20-30-yillaridan rasmiy ravishda majburan qabul qildirilgan ruscha familiya va ota ismlari; Yoqubova, Xojiyev.[3;12] Bu bo‘linish o‘zbek antroponimiyasi uchun xoslangan. Chunki yuqorida ko‘rib o‘tgan ayrim antroponimik birliklar Yevropo tilshunosligi antroponimiyasi uchun xosdir.

O‘zbek tilshunosligi antroponimiyasiga kiruvchi mikroko‘lam(kichik guruh) tarkibidagi bo‘linishini turli tasniflarda kuzatish mumkin. Tilda antroponimlarning tasniflanishi antroponimik terminologiya uchun material vazifasini o‘taydi. Antroponimik terminologiyaning tilshunosliklararo tafovuti til egalarining millati, yashash tarzi, hududiy chegaralanishi va lingvokulturologik xususiyatlariga bevosita bog‘liq. Antroponimik terminologiyaning tadqiqi shuni ko‘rsatadiki, sohaga oid terminlarni izohlashda atamalni guruhlash va ichki tasniflash orqali bir til xususiyatlarini izchil yoritish va boshqa til imkoniyatlari bilan qiyoslash maqsadlidir.



### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Маҳмудов Н. Илмий матнда термин таносиби ва такомилли. Ўзбек тили ва адабиёти. 2– сон. – Б. 8.
2. Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской химической терминологии // Труды МИФЛИ. Том 5.Сборник статей по языковедению. – М.,1939. – С. 6.
3. Виноградов В.В. Вступительное слово на Всесоюзном терминологическом совещании // Вопросы терминологии. – М.: Наука. 1961. – С. 16.
4. Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. – М.: Наука, 1977. – С. 90.
5. Klichev В.Е. Buxoro viloyati toponimlarining lingvistik tadqiqi: Филол.фанл.докт. (DSc) ... disser. – Buxoro, 2024. – В.149; 155; 156.
6. Хojiyeva М.У. Termin, terminologiya va onomastika//Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. – Buxoro, 2024. 11-son. – В. 111-114.